
Tadbirkorlar muammolari tezkor va samarali hal etilmoqda

2019 yil 11 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi tuman hokimligi bilan hamkorlikda tadbirkorlar murojaatlari o'rganildi.

Qo'shtepa tumanida faoliyat ko'rsatayotgan "FRUKTI YAGODI DOLINI" MChJ shaklidagi qo'shma korxonasi joriy yilda "KRISTAL FIYIN INDUSTRY" qo'shma korxonasi bilan hamkorlikda qiymati 1 mln dollarlik loyiha amalga oshirilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzoq muddatli saqlashga qaratilgan zamonaviy sovutish tizimiga ega inshootlar avgust oyida foydalanishga topshirildi.

Bugungi kunda Germaniya davlati bilan eksport shartnomalari tuzilgan bo'lib, eksportni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag' talab etiladi.

Ushbu masala yuzasidan tadbirkor X.Mamadaliev "Uzsanoat qurilishbank" Farg'ona viloyati hududiy filialiga murojaat qiladi hamda 1,5 mlrd so'm bank krediti olish uchun tegishli tartibda hujjatlarni tayyorlab o'z muddatida taqdim etadi. Lekin, ushbu bank muassasasi tomonidan kredit ajratilmasdan, tadbirkor murojaati qanoatlantirilmay paysalga solib kelingan.

Bunday holat tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazib, shartnomada belgilangan talablarni bajarishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. Shu munosabat bilan korxonah rahbari X.Mamadaliev yuqorida qayd etilgan masalalar yuzasidan amaliy yordam so'rab murojaat qildi.

Qo'shtepa tumani hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari B.Taniqulov ushbu murojaat yuzasidan o'z munosabatini bildirib, ko'tarilgan masalani hal etish bo'yicha zaruriy chora tadbirlar ko'rilishini ma'lum qildi.

Qo'shtepa tumani Bosh vazir qabulxonasi axborot xizmati

2019-10-11 19:36:18